



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 17.06.2022 г. № 2022-681-2-41-ОВ

между Feruz Trans Qurilish 2020 и Шофиркон туман Ободонлаштириш бошкармаси на общую сумму **553000000**

Глава 110  
Казначейский лицевой счёт 301821860062587064200110003

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)		Всего
	4332900		
Январь			
Февраль			
Март			
Апрель			
Май			
Июнь	83 000 000,00		83 000 000,00
Июль			
Август			
Сентябрь			
Октябрь			
Ноябрь	470 000 000,00		470 000 000,00
Декабрь			
<b>Всего за год</b>	<b>553 000 000,00</b>		<b>553 000 000,00</b>

Всего 553000000,00 сум

Беш юз эллик уч миллион сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 83000000 сум или 15,00%\*\*\* от общей суммы договора подлежат предплате в Июнь мес. 2022 г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_%, от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



Якубов Халим Махмудович

(подпись)

Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

Аъзамов Исок Камолович

(подпись)

Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения

(подпись)

Получил работник заказчика

(подпись)

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

## PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. «17» 6

2022-681-2-41-OB-son

Shofirkon tuman.

“Feruz Trans Qurilish 2020” MChJ (keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladi) nomidan o‘zining ustavi asosida ish yurituvchi **F.Hamroyev** timsolida, bir tomondan va Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi) nomidan o‘zining nizomi asosida ish yurituvchi **H.Yakubov** timsolida, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### 1.SHARTNOMANING PREDMETI

1.1 Ushbu shartnoma bo'yicha "Pudratchi" "Buyurtmachi"ning buyurtmasiga asosan Shofirkon tuman Denov MFY tungi ko'cha yoritish tizimini ta'mirlash ishlarini bajarish va "Buyurtmachi" esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmlariga oladilar. Ushbu shartnomaning umumiy summasi QQS bilan 553 000 000 (Besh yuz ellik uch million) so'mni tashkil etadi.

### 2. SHARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXLAR

2.1. Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga asosan ta'mirlash ishlarining qiymati QQS bilan 553 000 000 (Besh yuz ellik uch million) so'mni tashkil qiladi.

2.2. Ta'mirlash ishlarining boshlanishi "17" iyun 2022 yil.

2.3. Ta'mirlash ishlarining tugashi vaqti "30" noyabr 2022 yil.

### 3.TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHLASH, BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. Shartnomadagi 4.1 bandida ko'rsatilgan avansni “Pudratchi” olgandan so'ng ta'mirlash ishlarini boshlaydi.

3.3. “Buyurtmachi” tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4. Ta'mirlashni to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5. Ta'mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so'ng ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

### 4. TO'LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1. Ushbu shartnomaning umumiy narxi QQS bilan 553 000 000 (Besh yuz ellik uch million) so'mni tashkil etadi. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini boshlash uchun «Pudratchi»ga shartnoma narxining 15 % yoki 82950000 so'm miqdorda oldindan to'laydi va bu oldindan to'lov 2022 yilning iyun oyida amalga oshiriladi. «Buyurtmachi» tomonidan yakuniy to'lov «Pudratchi» ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilgandan so'ng amalga oshiriladi.

4.2. Yakuniy to'lovning miqdori 470050000 so'mni, ya'ni, kelishilgan summaning 85 foizini tashkil etadi va bu yakuniy to'lov ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilgandan so'ng amalga oshiriladi.

4.3. "Buyurtmachi" to'lovni pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiradi.

4.4. "Pudrat" tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summadan oshiqcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

### 5.PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

5.1. Shartnoma bahosi QQS bilan 553 000 000 (Besh yuz ellik uch million) so'm bo'lgan ta'mirlash ishlari yuqorida kelishilgan muddatda tugatish va foydalanishga topshirish.

5.2. Pudratchi maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega.

5.3. Buyurtmachini pudrat shartnomasi tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish.

5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomani tuzadi.

5.5. qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash; mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektни foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish; qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash; mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5.6. Pudratchi Buyurtmachidan bajarilgan xizmat uchun xaqni shartnomaning 4.1 bandiga asosan kelishilgan vaqtda va miqdorda to'lanishini talab qilish huquqiga ega.

## **6. BUYURTMACHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

6.1 "Buyurtmachi" "Pudratchi" dan ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida hamda belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan topshirishini talab qilish huquqiga ega.

6.2 "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq budjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofiq dalolatnomani "Pudratchi" bilan birgalikda tuzadi.

6.3 ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash.

6.4. Sifatsiz xizmat ko'rsatilganda "Buyurtmachi" xizmatni qabul qilib olishdan voz kechishi va kamchiliklarni bartaraf qilish to'g'risida 3 kun ichida pudratchini yozma ravishda xabardor qiladi.

## **7. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.**

7.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon, ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi

7.2. Buyurtmachi Pudratchiga bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lov qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

7.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

7.4. Pudratchi ob'ektни o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

7.6. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## **8. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI.**

8.1 Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

8.2 Agar shartnoma bo'yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

8.3. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi

## **9. FORS-MAJOR HOLATLARI.**

9.1 Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

9.2 Vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuch mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

9.3 O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz 15 kun davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

## **10. KELISHMOVCHILIKLARNI HAL QILISH TARTIBI.**

10.1 Ushbu shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq, tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi yoxud qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

## **11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.**

11.1. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budget tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek

buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan qonuniy kuchga kiradi hamda **2022-yil 31-dekabrgacha amalda bo'ladi.**

11.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib har biri bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan saqlanadi.

## 12. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA MANZILLARI

### «PUDRATCHI»

“Feruz Trans Qurilish 2020” MChJ  
( xizmat ko'rsatuvchining nomi )

Manzil: Shofirkon tumani Mingon q-q

Tel./faks: 97-300-05-53

h/v 20208000905084378001

Bank nomi; Turon bank Buxoro

MFO 00111

OKONX 41201

STIR 306467054

### «BUYURTMACHI»

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi  
(budgetdan mablag' oluvchi tashkilotning nomi)

Manzil: Shofirkon tumani Mirzoqul MFY

Tel./faks 502-33-39

sh/h\* 301822860062587064200110003

budgetdanmablag'oluvchiSTIRi201114223

OKONX 90211

G'aznachilik bo'linmasi nomi:

Shofirkon tuman bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi

G'azna h/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Toshkent Markaziy

bankning XKKM MFO 00014

G'aznachilik STIRi 201122919



F. Hamroyev

Rahbar:



H. Yakubov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA YURIDIK  
XULOSA**

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: Pudrat shartnomasi.

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi va “Feruz Trans Qurilish 2020” MChJ o‘rtasidagi 553 000 000 (Besh yuz ellik uch million) so‘mlik pudrat shartnomasi.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 17-iyun sanasida ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa uchun taqdim etilgan.

Loyiha tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ilova hujjatlar asosida ko‘rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti**



**A.Nusratov**